

UDK 633.854.54;631.52

LALMIKORLIKDA MOYLI ZIG'IRNING YANGI NAVINI YARATISHDA SELEKSIYANING MUXUM YO'NALISHLARI

Аманов Фаррух Бахтиёрович

Лалмикор деҳқончилик илмий тадқиқот институти,
мустақил тадқиқотчи

Annotatsiya: Maqolada moyli zig'ir nav va namunalarining mahsuldorlik ko'rsatkichlari haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tilgan. 2019-2021 yillarda olib borilgan tajriba natijalari asos qilib olingan.

Kalit so'zlar: zig'ir, avlod, oila, hosil, hosildorlik.

Аннотация: В статье дан краткий обзор урожайности сортов и образцов масличного льна. По результатам экспериментов, проведенных в 2019-2021 гг.

Ключевые слова: лен, поколение, семья, урожай, урожайность.

Annotation. The article gives a brief overview of the yield of varieties and samples of oil flax. According to the results of experiments conducted in 2019-2021.

Key words: flax, generation, family, harvest, productivity.

Kirish. Moy inson uchun eng zarur va xech narsa bilan almashib bo'lmaydigan oziq-ovqatlar sirasiga kiradi. Oziq-ovqat uchun don ekinlari mahsulotlaridan keyin iste'mol moyi ko'p ishlatiladi. Moyli ekinlardan faqatgina moy olish bilangina qanoatlanilmaydi. Moy ajratib olingandan so'ng ularning kunjarasi chorva mollari uchun to'yimli ozuqa, qayta ishlash sanoati uchun zarur hom ashyo xisoblanadi.

Respublikamiz aholi sonining uzluksiz oshib borishi, o'simlik moyiga bo'lgan talabning ham mutta'sil yuqorilashiga sabab bo'lmoqda.

Ayni vaqtda moyli ekinlarining tashqi muhitning noqulay iqlim sharoitlariga mos, abiotik va biotik omillariga chidamli, hosildorligi yuqori bo'lgan navlarini tanlash va yaratish hamda ularning birlamchi urug'chiligini yo'lga qo'yish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

M.K.Lukovning 2012 yil ta'kidlashicha moyli ekinlar seleksiyasining maqsadi yuqori hosilli, yuqori moyli, ko'p ko'sak hosil qiladigan, yirik urug'li navlar yaratishdir. Odatda yirik urug'larning tarkibida moy miqdori ko'p bo'ladi. Mexanizatsiyaga mos bo'lishi uchun urug'i to'kilmaydigan, ko'saklari balandroq joylashadigan navlarni yaratish maqsadga muvofiqdir [1].

Ilmiy tadqiqotning maqsadi. Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot institutiga O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot institutidan keltirilgan, kelib chiqishi jihatidan turli mamlakatlarga mansub bo'lgan moyli zig'ir namunalarini Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti lalmikor tajriba maydonlarida ekib o'rganish va qimmatli belgi va xususiyatlarga ega bo'lgan namunalarni tanlab olish xisoblanadi.

Materiallar va metodlar. Ilmiy tadqiqotlar 2019-2021 yillari Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti lalmikor tajriba maydonlarida olib borildi. Tajribalarni joylashtirish, hisob va tahlillar O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti uslubi bo'yicha, biometrik taxlillar va fenologik kuzatuv ishlari Qishloq xo'jalik ekinlari Davlat nav sinash komissiyasining (1985, 1989) uslubi hamda Lalmikor dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan (2004) uslubiy qo'llanmalar asosida olib borildi.

Zig'irning namunalar maydonida 2019-2021 yillari 118 ta nav namunalari sinaldi. Andoza naviga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan nav namunalari tanlab olindi. Hosildorlik bo'yicha andoza nav Bahorikorga nisbatan 0,1-0,9 s/ga, o'suv davri bo'yicha 2-3 kun, ertapisharligi bo'yicha 1-3 kun, bir o'simlikda shoxlar soni bo'yicha 2-4 taga, bir shoxda

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

IYUL

ANDIJON, 2025

savatlar soni bo'yicha 2-4 taga, bir savatda don hosil qilish bo'yicha 4-6 taga va don tarkibidan yog' chiqishi bo'yicha – 2-2,4% ga andoza naviga nisbatan ustunligi aniqlandi. Ilmiy tajribaning mahsuldorlik ko'rsatkichlari jadvalda keltirilgan.

Tajriba qo'yilgan yillarda ob-havo haroratining (mart, aprel va may oyida) asosan moyli ekinlarning shoxlashi, gullashi va savatlar hosil bo'lib, don va yog' sintezlash paytida 3 oy muddat ichida o'rtacha 15,3 millimetr yog'in-sochin bo'lishi va havo-haroratining 32-36 darajaga ko'tarilib ketishi zig'ir o'simligining don hosil qilish, donda yog' sintezlashiga salbiy tasiri kuzatildi.

Bu borada akademik G.I.Shpota 1971 yil o'z tajribalaridan kelib chiqib quidagicha izohlaydi, agarda moyli ekinlarning hosil paydo bo'lishida me'yoridan ortiq harorat bo'lsa,

№	Nav va namunalari nomi	Yillar bo'yicha hosildorlik, s/ga			O'rtacha hosildorlik, s/ga	o'simlikdagi shoxlar soni	1 shoxda savatlar soni, dona	1 savatdagi don soni, dona
		2019	2020	2021				
1	Bahorikor (an)	5,5	7,8	4,9	6,1	3,9	18,2	7,8
2	K-31032	5,2	8,3	5,0	6,2	4,1	18,6	8,2
3	K-30920	6,1	8,0	5,3	6,5	4,2	19,1	8,0
4	K-30875	6,7	8,7	5,6	7,0	3,9	21,7	8,4
5	K-31029	6,2	7,9	4,9	6,3	4,7	20,3	7,9

qurg'oqchilik kelgan yillari lalmikor maydonlarda moyli ekinlar don tarkibida oqsil miqdori ko'p to'planib, yog' chiqishining kamayishiga olib keladi [2].

Мойли зиғир нав намуналарининг маҳсулдорлик кўрсаткичлари
(Ғаллаорол 2020-2021 йй.)

Raqobat nav sinash maydonida 10 ta nav namunalari 4 qaytariqda ekilib asosan ertapisharlik ko'rsatkichlari bo'yicha kuzatishlar olib borildi. Kuzatishlar natijasida 4 ta namuna andoza Bahorikor naviga nisbatan 2-5 kun ertapisharligi aniqlandi.

Raqobat nav sinov ko'chatzorida moyli zig'ir nav va namunalarining ertapisharlik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari,
G'allaorol 2019-2021 yillar.

№	Nomi	Vegetatsiya davri, kun	O'simlik bo'yi, sm	1000 ta urug' vazni, g
1	Bahorikor (an)	91	48	4,3
2	32159	93	51	4,4
3	33220	95	55	4,6
4	338/1	89	46	4,3

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

IYUL

ANDIJON, 2025

5	47721	97	48	4,1
6	2018/8 (Lalmikor)	86	51	4,7
7	33242	95	48	4,4
8	30114	94	47	4,6
9	1988/03	86	56	4,6
10	33104	88	50	4,5

Xulosa. Tajriba natijalaridan kelib chiqib shuni xulosa qilish mumkinki moyli ekinlar yuqori hosildorlikka ega bo'lishi va shu bilan bir qatorda moy sifat ko'rsatkichlari xam Davlat andoza talablariga javob berishi lozim. Olib borilgan tajribalar natijasida o'suv davri, ertapisharlighi, hosildorlighi bo'yicha andoza navga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan namunalar tanlab olindi. Bu namunalar kelgusida yuqori hosildorlikka va sifatli moy chiqishiga ega bo'lgan navlarni yaratishga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.K Lukov Moyli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi (Leksiyalar kursi)
2012. 87-bet
2. G.I.Shpota "Maxsar"
Moskva. Xabarnoma.